

TIL MILLAT KO‘ZGUSI

Akmalova Gulnor Orzimurodovna

Navoiy viloyat Nurota tuman

2 - son Texnikum onatili adabiyeti fani ukituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbek tilining dunyo hamjamiyatida tugan o‘rni va ahamiyati, shuningdek ona tilimizning ko‘rki, millat uchun naqadar zarur ekanligi, ona tilimizning rivoji uchun davlat tomonidan berilayotgan e‘tibor bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, ma‘naviyat va ma‘rifat, ta‘limga e‘tibor, O‘zbek tili to‘g‘risidagi qonun.*

Millatimizning asrlar mobayonida madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktyabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak nom berildi. Mustaqillik yillarida ona tilimiz tom ma‘noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e‘tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Bilishimiz mumkin bo‘ladiki til – millat qiyofasining bir bo‘lagi, ko‘rki hisoblanadi. Dunyodagi barcha xalqlar o‘zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq. Mutaxassislarining so‘zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi

yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi xamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo'ladi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri, avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muammolada bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng yo'q bo'lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo'qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo'qolib ketish havfida bo'lgan tillarning saqlab qolish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'yharakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urfodatlarini saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng xozir muammolada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi amalda bo'lishi mumkin bo'ladi. Til – millatning ma'naviy boyligi va ko'rki hisoblanadi. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham xar bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. XXI asr o'rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo'lib olishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta. Shuni aytishimiz mumkin bo'ladiki tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir. Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda

o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. “Til yashasa, millat yashaydi”. Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog‘on bo‘ladi va birligimiz musyahkam bo‘ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek “Millatni yo‘q qilish uchun u yerga qurol ko‘tarib borish shart emas, uning tilini, ma‘naviyatini, adabiyotini yo‘q qilish kerak, shunda millatning o‘zi yo‘q bo‘lib ketadi” degan fikri naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29- avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, 1997- yi, 29-avgust.